

Dubaydagi MRO Middle East 2022 natijalari

2022 23 Fevral

“Uzbekistan Airways” AJ tarkibiy bo‘linmasi hisoblanuvchi “Uzbekistan Airways Technics” MRO Middle East 2022 ko‘rgazmasida Airbus va Boeing havo kemalariga, shu jumladan Dreamlinerga texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash bo‘yicha o‘z imkoniyatlarini namoyish etdi.

Shuningdek, ishtirok doirasida IAI (Isroil aviatsiya sanoati) kompaniyasi bilan Uzbekistan Airways Technics ishlab chiqarish maydonlarida Boeing 767 yo‘lovchi samolyotlarini, bugungi kunda jahon bozorida talab yuqori bo‘lgan yuk tashuv konfiguratsiyasiga aylantirish liniyasini birgalikda tashkil etish va hamkorlik aloqalarini rivojlantirish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

Jamoa bir qator B2B uchrashuvlarini o‘tkazdi va O‘zbekiston bilan hamkorlik qilishdan manfaatdor bo‘lgan, ehtiyot qismlarni yetkazib beruvchi ilg‘or kompaniyalar bilan aloqa o‘rnatdi.